



YANGI O‘ZBEKISTONNING QADRIYATLAR TIZIMI TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kdirbayev Qonisbay Muratbay o‘g‘li

«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti» MTU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7743308>


Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi O‘zbekistonning qadriyatlar tizimi tushunchasi haqida so‘z etildi. Uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi eng muhim tamoyil va mezonlar talqin qilindi.

Kalit so‘zlar: Qadriyatlar tizimi tushunchasi, yangi O‘zbekiston fenomeni, inson fenomeni, milliy-ma‘naviy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar.

Agar rivojlangan davlatlarning tajribasiga nazar solsak, har bir davlatning jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallashida, avvalo o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘ va istiqbolli maqsadlari va ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilgan “Harakatlar strategiyasi” va “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ham istiqbolimiz tag‘dirini belgilashda g‘oyat muhim sanaladigan yangi bir davrni ifodalovchi milliy strategik g‘oya sifatida e‘tirof etishimiz mumkin. Ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki ushbu milliy strategik g‘oya, an‘anaviy qadriyatlarimiz bilan hamohang bo‘lib, jamiyatda adolatli mukammal qonunlarning yaratilishi va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligini ta‘minlash, insonlarda milliy g‘oyaviy e‘tiqodni shakllantirish, ularning bilim-salohiyatini yuksaltirish kabi muhim jihatlarni o‘zida mujassam etadi va yangi O‘zbekistonning qadriyatlar tizimi tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonning qadriyatlar tizimi tushunchasi uchun asos bo‘layotgan va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi eng muhim tamoyil va mezonlar quyidagilardan iborat:

- mamlakatimizda yangi jamiyatni barpo etish g‘oyasining milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizga to‘laqonli mos kelishi, bu g‘oya atrofida xalqimizning bir tan-u bir jon bo‘lib sobitqadamlik bilan jiplashayotgani;
- yangidan shakllanayotgan zamonaviy jamiyatimizda inson qadrini ulug‘lash tamoyilining shakllanayotgani;
- izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarimizning barcha javhalarida amaliy jihatdan aks etib borishi;
- yangi O‘zbekiston fenomenida inson fenomenining oliy qadriyat sifatida namoyon bo‘lishi;





- adolatli demokratik davlat qurish, bunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning qadriyat omillari bilan o'zaro hamohangligi;
- globallashuv va ommaviy madaniyat keng tarqalayotgan bugungi davrda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni asrash, uni barqarorlashtirish borasida tizimli faoliyatning yo'lga qoyilayotgani.

Milliylik, milliy g'oya tushunchalarining inson tafakkurida aks etishi "mustaqil davlatimizning bugungi va ertangi kelajagi"ni belgilovchi asosiy g'oyaga aylanmoqda. O'zimizning tilimizni, o'zimizning dinimizni, har tamonlama o'zligimizni anglash, o'zligimizni yuqori ko'tarish, g'urur-iftixorimiz bilan yashash degan fikrni shakllantirish va unga erishish, bir so'z bilan aytganda qadriyatlarimizni barqarorlashtirish va uni yangi bosqichga ko'tarish oldimizdagi eng asosiy maqsadlarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'z navbatida milliy qadriyatimiz milliy iftixorimiz hamdir. Zero, milliy qadriyatlarsiz milliy tiklanish ham bo'lmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz miqyosida keng ko'lamli amalga oshirilayotgan strategik maqsadlarning markazida inson, inson qadrini ulug'lash g'oyasi turadi. Bu g'oyaning gavdalanishi bugungi kun nuqtayi nazaridan jamiyatimiz hayotidagi har qanday islohotlarning zamirida kundan-kunga o'z aksini topib bormoqda.

Shu boisdan ham, harakatlar strategiyasi loyihasining ishlab chiqilishi asosan aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari natijasida shakllantirildi. Mazkur strategiya besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturi tasdiqlandi. Xususan, «2017-yil — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini» yili deb elon qilindi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Eng asosiy ustuvor vazifa – "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturini amalga oshirish, "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" degan g'oyani izchillik bilan tadbiq etishdan iborat" degan fikrlari ham shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimimizda inson qadrining benihoyat ustun ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi.¹

Shuningdek, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ezgu g'oyaning hayotga amaliy tatbiq etilishi, eng avvalo

¹ Ш.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. - 7-бет.





xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvarda PF-5308-sonli «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida, 2019 yil 17-yanvardagi PF-5635-sonli «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida, 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida, va 2021-yil 3-martdagi PF-6155-sonli «Yoshlarni qollab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi farmonlari tasdiqlandi.

O'tgan davr mobaynida Harakatlar strategiyasini ro'yobga chiqarish uchun 311 ta qonun 2000 ga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 3000 dan ziyod Hukumat qarorlari qabul qilinganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Hammamizga ma'lumki, jamiyatimiz hayoti, uning taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida erkin va ozod, adolatli, insonparvar jamiyat barpo etishdek muhim maqsad turibdi.

Ayni damda "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyilning hayotimizga nazariy va amaliy jihatdan tadbiq etilishi xalqparvar islohotlarimizga yangicha shakl-u shamoyil baxsh etadi.

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotida inson fenomenini yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu borada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va bunday o'zgarishlarning amaliy natijalari jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda xalqimizning milliy mentaliteti, milliy-ma'naviy qadriyatlariga asoslangan adolatli jamiyat va ijtimoiy davlat barpo etilmoqda. Bu borada tizimli va izchil islohotlar amalga oshirilib, uning natijalari jamiyatimiz hayotida kun sayin o'z aksini topib bormoqda.

Xulosa shuki, yangi O'zbekistonda vujudga kelayotgan qadriyatlar tizimining markazida inson qadrini ulug'lash tamoyili turadi va bugungi kunda respublikamizda yuz berayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar avvalo xalqimizning hayot faoliyatini yaxshilash, ularga munosib shart-sharoitlarni yaratish, insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdek ezgu maqsadlarni o'zida mujassam etmoqda. Dunyoda globallashuv, ommaviy





madaniyat keng tarqalgan hozirgi davrda tinchliksevar siyosat yuritish pozitsiyasida mustahkam turib, milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash, uni barqarorlashtirish tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda taraqqiyot yo'limizni tizimli va izchillik bilan davom ettirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – 104 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi» farmoni. <https://lex.uz/acts/-3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi» farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

